

YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASH YILIDA TADBIRKORLIKNING ZARURIY HARAKATLARI

Qazoqova Marxabo Xazratovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi biznes asoslari fani o'qituvchisi

Eshmurodova Noila Xolmurodovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi biznes asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda 2024-yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qilindi.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik, ishbilarmonlik, kichik va o'rta biznes, yoshlar tadbirkorligi.*

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishii eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga murojaat bilan chiqish qilib, o'z nutqida yoshlarni qo'llab-quvvatlash dolzarb ekanligi to'g'risida alohida to'xtalib o'tdi va 2024 yilni "Yoshlar biznesini qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilishni taklif qildi. Ushbu taklif jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xuddi shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqida ham yoshlarimizni "O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi" deb ta'rifladi.

Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish va ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytirish, Xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunimizning asosiy masalasi hisoblanadi.

Yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni yoshlar o'rtasida rivojlantirish, ularni zamonaviy kasblarga yo'naltirish masalaning yechimi bo'la oladi. Davlatimiz tomonidan bu borada yaxlit tizim yaratilgan bo'lib, yoshlarning biznes tashabbuslari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashilmoqda va shu orqali ularning bandligi ta'minlanmoqda.

Shuningdek, tadbirkorlikka qiziquvchi yoshlarni biznes va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hamda ularning innovatsion, startap va biznes loyihalarini moliyalashtirish tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha o'quv dasturlari tayyorlanib, bugungi kunga qadar 91 nafar yoshning 44,3 milliard so'm qiymatdagi istiqbolli loyihalari moliyalashtirildi. O'tgan davr mobaynida 95 ming nafar yosh doimiy ish o'rniga joylashtirildi.

Yoshlarga zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rgatishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangicha tartibi – "Kelajak kasblari" loyihasi ham

joriy etilgan. Ushbu loyiha doirasida joriy yil davomida 3 ming 251 nafar yoshning o'qish xarajatlarining 8,7 milliard so'm miqdorida mablag'I qoplab berildi. Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishii eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me'yoriy asolarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kam sarmoya talab qiladigan, tez modernizatsiya qilinadigan va bozor konyukturasining o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha oladigan biznes yuritish zamon talabiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kichik biznes bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi.

Yurtimizda tadbirkorlik azaldan xalqimiz uchun xos bo'lgan va jamiyatda yuksak qadrlangan. Xususan, Amir Temur o'z saltanatida tadbirkorlar, shijoatli insonlarni g'oyat qadrlagan: "Tajribamda ko'rilganki, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi." Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g'oyalari amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda.

Aholining mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni, aholi tomorqalari va bo'sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda. Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. Yoshlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ham katta kuch. Respublikamizda 230 mingga yaqin yosh tadbirkor va fermerlar, mohir hunarmandlar faoliyat olib bormoqda. Ularning safi yanada kengayishi uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Faqatgina "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida yosh avlod vakillarining 8 mingtaga yaqin biznes loyihasiga 1 trillion 630 milliard so'mdan ziyod imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi, natijada 40 mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etildi. Navqiron avlod tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda respublikamizda tashkil etilayotgan "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazlari va "Yoshlar mehnat guzarlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini egallagan yoshlar mustaqil faoliyatini boshlashmoqda. Qishloq joylarida esa

“Har bir yoshga – bir gektar” loyihasining amalga oshirilishi natijasida 65 mingga yaqin yosh dehqonlarga 54 ming gektardan ziyod yer ajratib berildi.

Bundan tashqari yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida Prezident qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosi aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar hamda biznes sohasi vakillarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan qarorda aholini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish hamda yagona davlat tashkiloti tomonidan muvofiqlashtirib borish nazarda tutilgan.

Yoshlar loyihalarini moliyalashtirish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida alohida jamg‘arma tashkil etilib, ushbu jamg‘armaga 100 million dollar mablag‘ ajratiladi. Ushbu jamg‘arma yoshlarning loyihalariga qulay shartlarda va past foizlarda kredit beradi. Bu 2021 yilning o‘zida yilda kamida 500 ming yoshga ish joyi yaratish imkonini beradi. Shuningdek, respublikamiz hududlarda “ustoz-shogird” an‘anasi yanada kuchaytirilib, ana shu ezgu ishga jalb etiladigan hunarmand ustalarni Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etiladi.

Yurtimizda erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil etish tajribasidan foydalangan holda barcha shahar va tumanlarida “Yoshlar kichik sanoat zonalari” tashkil etiladi. Ushbu sanoat zonalarida yoshlar loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘ladigan barcha infratuzilma ob‘yektlari joylashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ishsizlikni kamaytirishga va aholi turmush darajasini oshirishga erishish mumkin. O‘z navbatida, yoshlar tadbirkorligining qo‘llab-quvvatlanishi iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga, sarmoya jalb etishga ham hissa qo‘shadi. Shuningdek, yosh tadbirkorlar odatda bozorga yangi g‘oyalar va innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlar bilan kirib keladi. Bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Muhimi, yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishiga erishilayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev A. Mustaqillik avvalo huquq demak // “Yangi Ozbekiston”, 2022, 27 avgust.
2. Sa’dullaev A. Xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan, zamonaviy fikrlaydigan, har sohada bilimdon èshlar mamlakatga tayanch boladi// “Yangi Ozbekiston”, 2021, 30 iyun.
3. Hakimov O. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yangicha èndashuvlar talab Etiladi // “Yangi Ozbekiston”, 2022, 28 avgust.йўз.уз.нەۋە، 2021, 10 iyul.
4. https://uza.uz/oz/posts/yosh-tadbirkorlarni-qollab-quvvatlash-mamlakat-iqtisodiyotiga-qanday-tasir-qiladi_523373